



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 556 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
A. S. Umarov	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
Haytbayeva S. R.	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
Kadirova Nigora Saxibjanovna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
Samiyeva Zuleyxa Uktamovna	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
Toshpulatova Aziza Toyirovna	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
Begmatov Raximkul Olimovich	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
Narziyeva Mastura Sunnatovna	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
Qo'chqorov Nodir Bozorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
A'zamqulova Zilola Sunnat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции.....	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов.....	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета.....	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Анализ разработки женских коллекций с использованием стилистических и конструктивных особенностей ретро-моды	329
<i>Абдурахманова Н., Рахматуллаева У. С.</i>	
Использование современных образовательных технологий в начальной школе как средство развития познавательной активности учащихся	333
<i>Фазилова Гулчехра Ахмедовна</i>	
Nyuman (Newman) xatolar tahlili modelining geometrik isbotlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati.....	337
<i>Davletov Davronbek Egamberganovich</i>	
"Informatika" fani mavzularini taksonomik yondashuv asosida o'qitish	343
<i>Axrarov Baxtiyor Sagdullayevich</i>	
O'qituvchi faoliyatida pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash metodikasi.....	347
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Rus-o'zbek tarjimashunosligining zamonaviy tendensiyalari.....	351
<i>Kudratov Kamoljon Islomovich</i>	
Kompyuterga qaramlikning o'smirlarga ta'siri va uning psixologik oqibatlari.....	356
<i>Kushakova Nargiza Islambayevna, Ergasheva Sarvinoz Shavqiddin qizi</i>	
Musiqaning neyropsixologik rivojlanish va ta'lim jarayonidagi ahamiyati	360
<i>Xikmatova Shohida Xikmatovna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish	364
<i>Alimardanova Sitara Ikrom qizi</i>	
Comparative and Conceptological Trends in Linguoculturology	367
<i>Ablakulov Ilkhom</i>	
Boshlang'ich ta'limda kreativ ta'lim muhitini rivojlantirish asosida o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish	370
<i>Abdullayeva Ujalg'as</i>	
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari.....	373
<i>Aglamova Shahzoda Sobirovna</i>	

MUNDARIJA	Bokschi qizlar texnik harakatlarining kinematik ko'rsatkichlar asosida takomillashtirish metodikasi.....	378
	<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
	O'quv jarayonida formativ baholashning evolyutsion-xronologik tahlili	383
	<i>Davidova Dilnoza Tadjibayevna</i>	
	Oliy ta'limda "Smart Education" texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi	388
	<i>Dilrabo Amriddinova, Abdulxalilova Surayyo Ahad qizi</i>	
	Zamonaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini baholash kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	392
	<i>Majidova Hilola Eshquvat qizi</i>	
	Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish usullari.....	396
	<i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Xolmirzayeva Zebo Ravshan qizi</i>	
	Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport marketologi faoliyatiga tayyorlashning zarurati	402
	<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	
	O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida strategik boshqaruvni takomillashtirish.....	406
	<i>Saydullayeva Nargis</i>	
	Integrating Literary Texts Into Early Foreign Language Education: A Mixed-Methods Investigation of Lexical, Cognitive, and Affective Outcomes in Primary Classrooms.....	410
	<i>Shukurova Zamira Shodiyevna</i>	
	Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodik modeli.....	416
	<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning kichik motorikasini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati va individual yondashuv.....	421
	<i>Norboyeva Laylo Sapar qizi</i>	
	Психологические особенности проявления творческих способностей у подростков, воспитывающихся в бикарьерных семьях.....	425
	<i>Ишбобоева Гулбарчин Рустамовна</i>	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini vizual materiallar vositasida o'rgatishni takomillashtirish.....	433
	<i>Olimova Shahlo Bahodir qizi, Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasining hozirgi holati va muammolari.....	439
	<i>Diyoraxon To'htanazarova Zokir qizi</i>	
	Turkiy xalqlarning an'anaviy sport o'yinlariga yil fasllaridagi o'zgarishlarning ta'siri.....	443
	<i>Qodirova Xalimaxon Nurmuhammad qizi</i>	
	Нововведения в шкале стоимости элементов и коэффициентах компонентов программы ISU на 2026 год.....	447
	<i>Федорова Светлана Вячеславовна</i>	
	Ingliz tilidagi conjunctionlarning grammatik tasnifi va sintaktik vazifalari hamda ESP darslarida ularni o'rgatishning kommunikativ va kontekstual usullari.....	451
	<i>Mahammadiyeva Mashxura Maxmur qizi</i>	
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lisoniy tahlil ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy metodikasi	456
	<i>Yo'ldashova Dilso'z Umar qizi</i>	
	Voleybolchilarning sakrovchanlik ko'nikmalarini shakllantirishda harakatli o'yinlarning ahamiyati	461
	<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
	Effectiveness of Personalized Studying via Artificial Intelligence in Teaching English as a Second Language to Non-Native Speakers	465
	<i>Irzakulova Raykhon</i>	
	Texnologik ta'limda mustaqil ta'limni rivojlantirish yo'llari	469
	<i>Yaxshiboyev Temur-Malik Erkin o'g'li, Jonuzoqova Charos Ziyodulla qizi</i>	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda zamonaviy o'yin vositalarining aqliy va ruhiy rivojlanishga ta'siri.....	474
	<i>Abduxamidova Dilorom Abdumuminovna</i>	



Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar salohiyatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tahlili	479
Mamatqulova Shohsanam Dilshodovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning pedagogik asoslari	485
Xamdamov Usmon Ergashevich	
Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish masalasi	490
Adizova Nodira Baxtiyorovna, Ibotova Shahnoza Shuxrat qizi	
Malaka oshirish tizimida sifat menejmenti: "sun'iy intellekt" va "boshqaruv mexanizmi" tushunchalarining ierarxik bog'liqligi.....	494
Allanazarova Maftuna Qobul qizi	
"Uglevodorodlar" bo'limini o'qitishni axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish metodikasi (umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinflar o'quvchilari misolida)	498
Babajanova Nilufar Pirnafas qizi	
Axborot texnologiyalari vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.....	506
Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlari	510
Kabirova Zarifa Muqaddamovna	
Maktabgacha ta'limda qoraqalpoq ertaklari orqali bolalar tilini rivojlantirishning kognitiv asoslari	516
Matjanova Gulzada Annabayevna	
Issiq sharoitiga marafonchilar va futbolchilarning fiziologik moslashuvi xususiyatlari	520
Nurbayev Baxtiyor Shirinovich	
Xorijlik talabalarning tinglab tushunishdagi qiyinchiliklarini metakognitiv strategiyalar orqali bartaraf etish ..	524
Odiljonova Nilufarxon Avduvahob qizi	
O'qituvchilarda kasbiy so'nish va psixologik stress holatlarini keltirib chiqaruvchi psixologik-pedagogik omillar	528
Usmonov Salaxdin Alikulovich, Ortiqova Malika Odiljon qizi, Xolbekova Dinora Faxriddin qizi	
Umumta'lim maktablarida texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishning amaldagi holati va metodik muammolari	533
Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich	
Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalar va ularning imkoniyatlari	538
Xujaniyozova G. S.	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongillik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (oilaviy muhit misolida)	543
Yakubov Odiljon Tolibjon o'g'li	
Raqamli texnologiyalar davrida o'zbek tilining qo'llanilish istiqbollari	549
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Обучение образованию и употреблению форм числа имён существительных в школьном курсе русского языка	553
Идиева Гульмира Изомовна	

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI DARSLARINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH MASALASI

Adizova Nodira Baxtiyorovna

Buxoro davlat pedagogika instituti professori

Ibotova Shahnoza Shuxrat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan pedagogik islohotlar hamda boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida interfaol metodlar va 4K modeli asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, kommunikativ kompetensiyasi hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiya, ona tili ta'limi, boshlang'ich ta'lim, 4K modeli, kommunikativ kompetensiya, kreativ fikrlash.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of contemporary educational reforms and the role of innovative pedagogical technologies in organizing native language lessons in primary education. The study highlights the importance of interactive teaching methods and the 4K model in developing students' independent thinking, creativity, communicative competence, and collaborative skills.

Key words: education, pedagogy, interactive methods, innovative technologies, pedagogical technology, native language teaching, primary education, 4K model, communicative competence, creative thinking.

Аннотация: В данной статье проведён научно-теоретический анализ современных педагогических реформ и роли инновационных образовательных технологий в организации уроков родного языка в начальных классах. Особое внимание уделено использованию интерактивных методов обучения и модели 4К в развитии самостоятельного мышления, творческих способностей, коммуникативной компетентности и навыков сотрудничества учащихся.

Ключевые слова: образование, педагогика, интерактивные методы, инновационные технологии, педагогическая технология, обучение родному языку, начальное образование, модель 4К, коммуникативная компетентность, креативное мышление.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jamiyat taraqqiyotini jadal-lashtirish, ta'lim tizimini takomillashtirish hamda mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" asarida: "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoiylik bilan birlashtira olsak, ko'zlangan maqsadga albatta yetamiz", – deb ta'kid-laydi. Mazkur fikr yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va tashabbuskor insonlar etib tarbiyalashning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yoshlarning sifatli ta'lim olishi, o'z ustida muntazam ishlashi va intellektual salohiyatini rivojlantirishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ta'lim tizimi ko'p bosqichli yaxlit tuzilishga ega bo'lib, har bir bosqichda ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim pedagogik talab hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya jara-yonining izchil, uzviy va tizimli tashkil etilishini taqozo etadi.



Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning keyingi o'quv faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratishi bilan alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limdan maktab ta'limiga o'tish jarayonida bolalarning yangi muhitga moslashuvi bilan bog'liq ayrim muammolar kuzatilishi mumkin. Shu sababli har bir o'quvchiga individual yondashuv asosida ta'lim berish zarur hisoblanadi. Darslarni tashkil etishda o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchini faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki mustaqil fikrlovchi, ijodkor va faol shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Shu bois dars jarayonida o'quvchi faqat tinglovchi bo'lib qolmasligi, balki faol ishtirokchi sifatida o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olishi lozim. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish hamda o'z fikrini erkin, aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Har bir darsni tashkil etishda o'qituvchi ijodiy va individual yondashuvni qo'llashi zarur. Chunki bola ilk bor maktabga qadam qo'yganida o'qish va yozish ko'nikmalariga to'liq ega bo'lmaydi. Shu sababli unda fanga qiziqish uyg'otish, ta'lim jarayoniga faol jalb etish va o'quv motivatsiyasini shakllantirish maqsadida darslarni qiziqarli, mazmunli hamda didaktik materiallarga boy tarzda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XXI asr ta'limi an'anaviy bilim berishga yo'naltirilgan yondashuvdan farqli ravishda o'quvchining kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy darsliklar va ta'lim konsepsiyalari 4K modeli asosida tashkil etilib, o'quvchilarda kommunikativlik (Communication), tanqidiy fikrlash (Critical Thinking), hamkorlikda ishlash (Collaboration) va kreativ fikrlash (Creativity) ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va o'qish savodxonligi fanlari alohida o'rin tutadi.

Ona tili darslarida o'quvchilar she'r, maqol, hikoya va ertaklarning mazmun-mohiyatini anglay olishi, asarlarni mustaqil tahlil qilishi hamda ularga ijodiy yondashgan holda o'z fikrini erkin ifoda eta bilishi muhim hisoblanadi. Shu bois ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish zarur.

Bugungi kunda maktab ta'limi tizimida an'anaviy va ommaviy ta'lim-tarbiya shakllari o'rnini bosqichma-bosqich innovatsion yondashuvlar egallab bormoqda. Bu jarayon o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda "innovatsion ta'lim" tushunchasining mohiyatini aniqlash muhimdir.

Innovatsion ta'lim deganda o'quv jarayoniga yangi, samarali va foydali elementlarni kiritish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Shu sababli innovatsiya ta'lim tizimida o'zgarish va yangilanishlar bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu o'zgarishlar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- a) ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, texnologiyalari, tashkiliy shakllari va boshqaruv tizimini;
- b) pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari hamda o'quv-bilish jarayonini tashkil etish mexanizmlarini;
- c) ta'lim jarayonlarini nazorat qilish va baholash tizimini;
- d) o'quv-metodik ta'minotni;
- e) tarbiyaviy ishlar tizimini;
- f) o'quv rejalari va o'quv dasturlarini;
- g) o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini.

Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar ta'lim tizimiga o'z-o'zidan kirib kelmaydi. Ularning amaliyotga joriy etilishi, avvalo, pedagogning kasbiy faoliyati, yangilikka intilishi, ijodiy yondashuvi va motivatsiyasiga bog'liqdir. O'qituvchining mas'uliyati, faolligi va innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirmasdan turib, ta'lim tizimida yuqori natijalarga erishish qiyin.

Innovatsion faoliyatning tuzilishini tadqiq etgan olimlardan biri V.A. Slastyonin uning tarkibiga ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangiliklarni joriy etishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, innovatsion fikrlash hamda muloqot madaniyati kabi komponentlarni kiritadi. Olim innovatsion faoliyatning reproduktiv, evristik va kreativ darajalarini ajratib ko'rsatadi. Mazkur darajalar pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligi va ijodiy salohiyatini ifodalaydi.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish hamda 4K kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Innovatsion faoliyat jarayonida yangiliklar, yangilanishlar va turli o'zgarishlar ta'lim tizimiga izchil ravishda joriy etiladi. Mazkur jarayon ta'lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyatni takomillashtirish hamda zamonaviy talablar asosida ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyat odatda quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. **Muammoni aniqlash va tahlil qilish bosqichi** – ta'lim jarayonidagi mavjud muammolar, kamchiliklar va ehtiyojlar aniqlanib, ular ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi.
2. **Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash bosqichi** – aniqlangan muammolarni bartaraf etish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi pedagogik model, metod yoki texnologiyalar ishlab chiqiladi.
3. **O'zgarish va yangiliklarni rejalashtirish bosqichi** – joriy etilishi ko'zda tutilgan innovatsion g'oyalar, metodlar va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishning maqsadlari, vazifalari, shakllari va mexanizmlari belgilab olinadi.
4. **O'zgarishlarni amalga oshirish bosqichi** – ishlab chiqilgan innovatsion yangiliklar ta'lim amaliyotiga tatbiq etilib, ularning samaradorligi monitoring va tahlil asosida baholanadi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat ta'lim tizimining uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi, pedagogik jarayonni takomillashtirishga xizmat qiluvchi hamda zamonaviy ta'lim talablariga moslashuvini kuchaytiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion faoliyatga tayyorlashning asosiy maqsadi o'qituvchilarda yangilikka intiluvchanlikni shakllantirish, yangi g'oyalarni mustaqil izlash, yaratish va amaliyotga tatbiq etish ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek, ilg'or pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan samarali foydalanish orqali dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarni yuqori pedagogik mahorat asosida tashkil etish kompetensiyalarini takomillashtirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat esa ilmiy izlanishlar olib borish, yangi ishlanmalarni yaratish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish hamda fan va texnika yutuqlaridan foydalanish orqali yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar va mahsulotlarni yaratishga qaratilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatning mohiyati yangi g'oya va ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, ularni loyiha va texnologiyaga aylantirish hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llashdan iborat. Shu jihatdan innovatsiya ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Ta'limning noan'anaviy shakllari va innovatsion metodlaridan o'rinni hamda samarali foydalanish o'quvchilarda ijodiy faollik, izlanuvchanlik, mustaqil fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ularni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Innovatsion metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishda quyidagi metodik talablarga rioya qilish zarur:

- innovatsion metodlar haqida yetarli nazariy bilimga ega bo'lish, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash va amaliyotda samarali qo'llay olish;
- innovatsion metodlarni har bir fan va mavzuning mazmuni hamda o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlash va qo'llash;
- innovatsion metodlardan foydalanishda ta'limning didaktik tamoyillari va pedagogik qonuniyatlariga rioya qilish;
- innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini qo'llab-quvvatlaydigan ta'lim muhitini yaratish.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat va innovatsion metodlardan samarali foydalanish o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash hamda o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qitish metodlari o'zining mazmun-mohiyati va amaliy xususiyatlariga ko'ra muayyan pedagogik nazariya hamda didaktik tamoyillarga asoslanadi. Ularning samaradorligi haqida fikr yuritilganda, avvalo, o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish, ta'lim mazmunini tizimli o'zlashtirish hamda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash darajasi e'tiborga olinadi. Shuningdek, metodlarning samaradorligi jamiyat tomonidan ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning qay darajada amalga oshirilayotganligi bilan ham belgilanadi.

Har bir metod ta'lim maqsadlari va o'quv materialining xususiyatidan kelib chiqib o'z o'rnida qo'llanilgan-dagina yuqori natija beradi. Shu sababli o'qitish metodlarini tanlash va qo'llashda ularning pedagogik imkoniyatlari hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiyalar ham o'quv jarayonida o'quvchilar faolligining yuqori darajasini ta'minlash, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish hamda oldindan belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, bilimlarni mustaqil egallash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Dars jarayonida innovatsion texnologik vositalardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni o'quv faoliyatiga faol jalb etadi hamda mavzuni tez, oson va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning kreativ fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasi va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Toshkent.O'zbekiston nashriyoti. . 2023-yil.412 bet
2. Xaitov X.A. "Boshlang'ich sinfda ona tili va o'qish savodxonligini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Buxoro. Durdona nashriyoti 2024-yil 4-6 bet.
3. Xaitov X.A. Zamonaviy o'zbek adabiyoti badiiy taraqqiyotida xalq kulgisining o'rni. Monografiya. Buxoro. Durdona nashriyoti 2024-yil 267 bet
4. Muxtorqulova R. Z. Abdurazoqov F. A "Badiiy asar tahlilida pedagogik texnologiyalardan foydalanish". International Journal of Resently scientific Reearcher's Theory" jurnali 2021-yil 91 b.
5. Ruzaliyeva Z. Z. Raximova X.R. Badiiy asarlar matni ustida ishlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari. "Научный импульс" международный научный журнал №5 (1000) часть 1 2023 г. 903 с

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.